

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QUROLLI KUCHLARI
OZOD VA OBOD YURTIMIZNING MUSTAHKAM TAYANCHI****Xamrakulov O'tkirjon Maxmudovich***Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti
umumqo'shin tayyorgarlik sikli katta o'qituvchisi podpolkovnik*

Anotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining davlatimizning tinchlik va barqarorligini saqlash kafili, yurtimizda kun sayin amalga oshirilayotgan yangiliklar, islohatlarni garanti sifatida. Qurolli kuchlarda ham hayotga tadbiiq qilinayotgan yangidan yangi o'zgarishlar, olib borilayotgan islohatlar, bu islohatlar orqali harbiy xizmatni o'tashda yanada yangi qulayliklar joriy qilinishi, hamda Qurolli Kuchlarimizni jahon arenasida tutgan o'rni, tarihi va kelajakdagi o'rni haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Chaqiruv yoshi, Xizmatdan ozod qilinganlar, Xizmatga layoqatli, Global Fire Power (GFP), Mustqil davlatlar hamdo'stligi, Quruqlikdagi Qo'shinlar, Havo Hujumidan Mudofaa Qo'shinlari va Harbiy Havo Kuchlari, Maxsus Qo'shinlar, Chegara va Ichki Qo'shinlar, Davlat Xavfsizlik, Favqulodda Vaziyatlar Vazirligi*

Tinchlik va barqarorlik hukm surgan davlat rivojlanadi, yuksaladi, taraqqiy etadi. Shu bois, islohotlarning yangi davrida mamlakatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnihilik muhitini shakllantirish yo'lida izchil islohotlar amalga oshirilmogda.

Xususan, zamonaviy talablarni, yuz berishi mumkin bo'lgan harbiy harakatlar teatrining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, Qurolli Kuchlarning tashkiliy-shtat tuzilishi printsiptial jihatdan o'zgartirildi, tezkor-strategik boshqaruv, operativ tayyorgarlik va qo'shinlarni jangovar qo'llashning haqiqiy markaziga aylangan samarali boshqarish tizimi yaratildi.

Harbiy okruglar tuzilib, Davlat chegaralarini himoya qilish va qo'riqlashning zamonaviy talablarga javob beradigan tizimi shakllantirildi. Harbiy operatsiyalar amalga oshiriladigan eng muhim yo'nalishlarda harakatchan, yaxshi ta'minlangan bo'linmalar, birinchi navbatda, sarhadlarimiz daxlsizligi va odamlarimizning tinch-osoyshta hayotini buzishga qaratilgan har qanday yovuz kuchlarning tajovuzkor xatti-harakatlariga qat'iy zarba berishga qodir bo'lgan maxsus bo'linmalar tashkil etildi.

“Xalq va armiya – bir tanu bir jon” g'oyasi asosidagi yangi tizim armiyadagi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarni yuqori bosqichga ko'tarib, harbiy xizmatchilarning ma'naviy dunyosini boyitish, intellektual salohiyatini yuksaltirishda keng jamoatchilik uchun harbiy qism va muassalar eshigini ochib berdi. O'z navbatida, armiyamiz mamlakatimiz aholisini, ayniqsa yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda namuna bo'lmoqda.

Asos solingan 1991-yil 14-yanvar
Quruqlik qo‘shinlari
Harbiy-havo kuchlari
 Qismlari Harbiy daryo floti
Milliy gvardiya
Chegara xizmati

Qo‘mondonlar

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

Mudofaa vaziri Bahodir Qurbonov

Harbiy kuchlar

Chaqiruv yoshi 18 yosh

Xizmat muddati 12 oy

Xizmatdan ozod qilinganlar 7 887 292^[1] kishi

Xizmatga layoqatlilar 6 566 118^[1] kishi

Chaqiruv yoshiga yetganlar 306 404^[1] kishi

Harbiy kasb bilan mashg‘ul bo‘lganlar 65 000^[2]

Moliyaviy holati

Byudjeti \$ 1,703 mlrd^[2]

YaMMdagi hisssasi 3,5% (2010)^[1]

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari – O‘zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarini, suvereniteti, hududiy yaxlitligini hamda aholining tinch hayotini himoya qilish, urushlar va qurolli mojarolarni qaytarish va oldini olish uchun davlat tomonidan tashkil etilgan va saqlab turilgan harbiy birlashmalar, qo‘shilmalar va qismlarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasida Mudofaa vazirligi tizimidagi qism va bo‘linmalar, Ichki ishlar vazirligining qorovul qo‘shinlari, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining harbiylashtirilgan qismlari, Chegara qo‘shinlaridan tashkil topgan.

O‘ZBEKISTON ARMIYASI

Bizning Qurolli kuchlarimiz 2022-yilga kelib O‘zbekiston armiyasi jahonning 106 mamlakati qurolli kuchlari o‘rin olgan jahon armiyalari reytingida 54-o‘rinni egallaydi.[3] Bu haqda yangilangan Global Firepower reytingida axborot berilgan.[4]

Global Fire Power (GFP) ma’lumotlariga ko‘ra (ular 2022-yil martiga doir), O‘zbekiston ixtiyorida hozirgi vaqtda 420-ta tank, 1215-ta BTR (zirhli transport vositasi), 98-ta raketa tizimlari, 70-ta qiruvchi samolyot, 65-ta vertolyot, xususan, 35-ta hujumkor vertolyot va boshqa ko‘plab qurol-aslahaga ega, qurol ko‘tarib, armiyada xizmat qilishi mumkin bo‘lgan aholisi soni esa 15,7 milliondan oshadi.[5]

GFP O‘zbekiston haqidagi ma’lumotlarni Markaziy razvedka boshqarmasi sayti, MRBning World Factbook to‘plami ma’lumotlari, „Vikipediya“ va ochiq manbalardagi boshqa ma’lumotlarga asoslanib tuzib chiqqan.

Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida O‘zbekistondan tashqari Qozog‘iston ham reytingdan o‘rin olgan bo‘lib, GFP uni 80-o‘ringa joylashtirgan. O‘zbekistonga hududiy jihatdan yaqin mamlakatlar orasida Afg‘oniston 76-o‘rinni egallagan, Tojikiston, Qirg‘iziston va Turkmaniston reytingga kiritilmagan.

Mustqil davlatlar hamdo‘stligi Boltiqbo‘yi mamlakatlari va Gruziya orasida hisobga olganda Rossiya (1-o‘rin) O‘zbekiston (3-o‘rin) va Ukraina (21-o‘rin)dan keyingi 3-o‘rinni band etgan. Ozarbayjon (50-o‘rin), Belarus (52), Gruziya (64), Qozog‘iston (80), Estoniya (96), Litva (103) o‘rin olgan. Armaniston, Moldova, Latviya kabi mamlakatlar reytingga kiritilmagan.

Reytingga ko‘ra, AQSh armiyasi eng qudratli deb topilgan bo‘lsa 1-o‘rin, Rossiya 3-o‘rin va Xitoy armiyasi kuchli uchlikdan o‘rin olgan. Hindiston, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Turkiya, Janubiy Koreya va Yaponiya armiyasi esa kuchli (10) o‘nlikka kirgan.

Qayd etish joiz, GFP‘ning 2014-yilgi reytingida ham O‘zbekiston 48-o‘rinda borayotgan edi.[6]

Dunyo davlatlarining harbiy salohiyatini belgilovchi Global Firepower Index‘ saytining yangilangan reytingida O‘zbekiston qurolli kuchlari Markaziy Osiyo hududida 1-o‘rin, MDH davlatlari orasida 5o‘rin va dunyoning 145 davlati orasida esa 62-o‘rinni egalladi[7][8].

TARIX

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 31-avgustdagi „O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida“gi Bayonotida „Davlat mustaqilligini, hududiy yaxlitligini, fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquqi va erkinligini himoya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasida Mudofaa ishlari vazirligi va Milliy gvardiya tuziladi. Respublika hududida joylashgan sobiq SSSR Ichki ishlar vazirligi, SSSR Davlat xavfsizlik qo‘mitasi hamda Ichki qo‘shinlari O‘zR yurisdiksiyasiga olinadi“, deb ko‘rsatilgan edi. Bu 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan „O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to‘g‘risida“gi qonunda „O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish, Milliy gvardiya va muqobil xizmatni tashkil etish huquqiga ega“ deb huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Bu amalda yosh respublikaga harbiy siyosatni amalga oshirish huquqini berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 6-sentyabrdagi farmoniga asosan, Mudofaa ishlari vazirligi tashkil etildi, uning shtat tizimi va vakolatlari belgilandi. 1991-yil 10-sentyabrdagi farmonga binoan, Mudofaa Vaziri ayni vaqtda Milliy gvardiya qo‘mondoni etib tayinlandi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 25-oktyabrdagi qaroriga binoan, Mudofaa ishlari vazirligining huquqiy maqomi, tuzilishi va nizomlari tasdiqlandi. Turkiston harbiy okrugi boshqaruv organlari negizida Mudofaa ishlari vazirligi Bosh shtabi va boshqarmalari tuzildi.

TARKIBIY QISMLARI

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga Quruqlikdagi Qo‘shinlar, Havo Hujumidan Mudofaa Qo‘shinlari va Harbiy Havo Kuchlari, Maxsus Qo‘shinlar, Chegara va

Ichki Qo'shinlar, Davlat Xavfsizlik, Favqulodda Vaziyatlar Vazirligi va boshqa vazirliklar va muassasalarga qarashli harbiy bo'limlar kiradi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining DXX, Chegara Qo'shinlari va Ichki Ishlar Vazirligi Qo'shilarining vazifalari. (Wayback Machine saytida 2014-07-26 sanasida arxivlangan)

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan, bo'lib uning XXVII bobida Mudofaa va xavfsizlik nomlanganligini xisobga olgan holda 152-moddasida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi deb izoh berib o'tilgan.

QUROLLI KUCHLARNING TUZILISHI VA ULARNI TASHKIL ETISH QONUN BILAN BELGILANADI.

153-moddada esa O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga ega.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida o'tkazilayotgan islohotlarning davrlarga bo'linishi

BIRINCHI DAVR (1998-2000 Y.)

Bu davr – QK takomillashuvi va harbiy – ma'muriy bo'linishi davri.

1. Harbiy okruglar, chegara tumanlari, Ichki qo'shinlarning hududiy bo'linmalarining tashkil etilishi;
2. Qo'shinlarning asosiy strategik yo'nalishlarda to'planishi;
3. HHKning HHM bilan birlashuvi;
4. Maxsus operatsiya kuchlarining yaratilishi;
5. Harbiy qism va bo'linmalarining yangi tashkiliy-shtat tizimining ishlab chiqarilishi, uni mashqlar davomida tekshirib ko'rilishi.

Ikkinchi davr (2000-2002y.)

Bu davrda Qurolli Kuchlar boshqaruv tizimining islohotlashtirilishi o'tkazildi.

1. Qurolli Kuchlarning Birlashgan shtabning yaratilishi;
2. Mudofaa vazirligi va Birlashgan shtabning vakolatlarining ajratilishi;
3. Mudofaa vazirligi, Ichki qo'shinlar bo'linmalari hamda front orti va texnik ta'minlov bo'linmalarida yangi tashkiliy-shtat tizimining kiritilishi;
4. Maxsus operatsiya kuchlari brigadasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi ichki qo'shinlarida va CHegara qo'shinlarida maxsus-qidiruv bo'linmalarining kengaytirilishi;
5. YAngi jangovar nizomlar, qo'llanmalar va yo'riqnomalarni ishlab chiqish va ularning bajarilishini ta'minlash;
6. Harbiy okruglarda serjantlar tayyorlash maktablarining ochilishi.

Uchinchi davr (2003-2005y.)

Qo'shinlarni to'ldirilishining sifatli o'zgartirilishi va ta'minlanishi.

1. Qo'shinlarning jangovar tayyorgarligi va jang olib borish qobiliyatining asosi hisoblangan jangovar tayyorgarlikning samaradorligini oshirish;
2. Qurolli Kuchlar tizimini optimallashtirish;
3. Qurolli Kuchlarning bosqichma-bosqich shartnoma asosiga o'tishi;

4. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining uzluksiz, ko'p bosqichli va samarali harbiy ta'limini va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etish;
5. Zaxira tayyorgarligining mutlaqo yangi usullarini ishlab chiqish va hayotga joriy etish;
6. Muddatli xizmatni 18 oydan 12 oygacha qisqartirish (oliy ma'lumotlilar uchun 12 oydan 9 oygacha);
7. Qo'shinlarni bosqichma-bosqich zamonaviy qurol-yarog' va jangovar texnika bilan ta'minlash;
8. Ofitserlar va shartnoma bo'yicha harbiy xizmatchilarning oylik maoshlarini oshirish, ularning yashash sharoitlarini yaxshilash va oilalarining ijtimoiy himoyalanihini oshirish, nafaqa miqdorlarini oshirish choralarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Mudofaa vazirligi rahbariyati

Mudofaa vaziri general-leytenant **KURBANOV Baxodir Nizomovich**

Mudofaa vazirining birinchi o'rinbosari - Qurolli Kuchlar Bosh shtabi boshlig'i

general-mayor **XALMUXAMEDOV Shuhrat G'ayratjonovich**

Mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari

general-mayor **KARSHIYEV Hamdam Aliqulovich**

Mudofaa vazirining qurollanish va qurollantirish bo'yicha o'rinbosari

Polkovnik **NORBOYEV Alisher To'xtayevich**

Mudofaa vazirining jangovar tayyorgarlik bo'yicha o'rinbosari

Polkovnik **TURSUNOV Kadirjon Abdipattaevich**

Mudofaa vazirining moddiy-texnik ta'minot bo'yicha o'rinbosari

Polkovnik **BOZORBOYEV Zoirjon Gulimmatovich**

Mudofaa vazirining o'rinbosari - Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondoni general-mayor **BURXANOV Ahmad Jamolovich**

MANBALAR:

1. Ministerstvo oboroni Respubliki Uzbekistan (Wayback Machine saytida 2014-11-26 sanasida arxivlangan) Voенno-politicheskaya situatsiya v Uzbekistane
2. Voorujyonnie sili Respubliki Uzbekistan Spravochnik SRU po stranam mira, 2016-07-09da asl nusxadan arxivlandi, qaraldi: 2013-10-02
3. Military Balance 2010 O'zbekiston jahonning qudratli armiyalari reytingida Qozog'istonni 32 o'ringa ortda qoldirdi, 2015-01-21da asl nusxadan arxivlandi, qaraldi: 2015-01-21 Countries Ranked by Military Strength (2015)
4. Uzbekistan Military Strength O'zbekiston jahonning eng qudratli armiyalari reytingida 48-o'rinni egalladi, 2014-07-17da asl nusxadan arxivlandi, qaraldi: 2014-07-16 „Dunyodagi eng kuchli armiyalar reytingi e'lon qilindi. O'zbekiston nechanchi o'rinda?“ (uz). Qaraldi: 10 dekabr. „2023 Military Strength Ranking“ (en). Qaraldi: 10 dekabr.

ADABIYOT:

1. Karimov I., Milliy armiyamiz – mustaqilligimizning, tinch va osoyishta hayotimizning mustahkam kafolatidir, T., 2003;
2. Vatan himoyasi – muqaddas burch. T., 2001; Armiya – davlat tayanchi va tinchlik kafolati, T., 2005.